

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
“Kitob at-tavhid” asarining Kembrij universitetida saqlanayotgan qo‘lyozmasini o‘rganish, raqamlashtirish hamda faksimile nusxasini yaratish	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: - Imom Moturidiy yashagan davrdagi ilmiy-ma‘naviy muhit hamda asarning yozilishiga turtki bo‘lgan diniy-ijtimoiy va falsafiy omillar tahlili asosida “Imom Moturidiy “Kitob at-tavhid” asarining Movarounnahr ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni” nomli monografiya nashr qilinadi; - asarning Buyuk Britaniyadagi Kembrij universitetida saqlanayotgan dunyoda yagona qo‘lyozmasining yuqori sifatga ega elektron hamda faksimile nusxalari yaratiladi; - elektron va faksimile nusxalari asosida “Kembrij universitetidagi “Kitob at-tavhid” qo‘lyozmasining kodikologik tahlili” nomli tadqiqot matni nashr qilinadi; - asarda yoritilgan bag‘rikenglik, mo‘tadillik va ma‘rifatparvarlik kabi umuminsoniy ezgu g‘oyalar asosida ijtimoiy roliklar tayyorlanadi hamda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng targ‘ib qilinadi; - Kembrij universiteti professor-o‘qituvchilari hamda ilmiy xodimlari bilan hammualliflikda jahonning nufuzli ilmiy nashrlarida maqolalar chop etiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma‘lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.

